Ma'lumki, investitsiyalar kelib chiqish manbasiga ko'ra, tashqi va ichki investitsiyalarga bo'linadi. O'z mohiyatiga ko'ra, ichki investitsiyalar aholi va korxonalarning o'z mablag'lari, mahalliy bank kreditlari va investorlar mablag'lari, shuningdek davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari shaklida bo'lsa, tashqi investitsiyalar o'z navbatida xorijiy investorlar (xorij fuqarolari va korxonalari) mablag'lari, xorijiy banklar kreditlari, xorijiy davlatlar qarz mablag'lari kabi shaklida bo'ladi.

Tabiiyki, bu yerda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati o'ziga xosdir. Xususan, xorijiy investor o'z investitsion faoliyatidan yuqori daromad olish maqsadida sarmoya kiritgan korxona (loyiha)ni samarali faoliyat yuritishiga intiladi. Buning uchun o'z mamlakatidagi samarali usullar va vositalarni kiritishga intiladi. Bu o'z navbatida mazkur loyiha amalga oshirilayotgan mamlakat uchun har tomonlama foyda keltiradi.

Yuqoridagi keltirilgan investitsiyalarning ijobiylari xususiyatlarini va mamlakatimizning hozirgi sharoitidan kelib chiqib, zarurat tufayli ham so'ngi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirish bo'yicha amalga



oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar markazida xorijiy investitsiyalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanimish asosiy maqsadlardan birini ifodalaydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi<sup>[1]</sup> qabul qilingan bo'lib, mazkur strategiyaning 49-maqсади "Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish" deb, belgilangan. Ushbu maqsad doirasida mamlakatimizda 250 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan, 110 mlrd. AQSH dollari xorijiy investitsiyalar va 30 mlrd. AQSH dollari davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bularning barchasi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiyalarini tahlil qilishda markaziy o'rinni muqobil investitsion loyihalar samaradorligini baholash va taqqoslash egallaydi. Investitsiyalar samaradorligini baholashni buxgalteriya va statistika hisobotlari natijasida olingan ma'lumotlar asosida, shuningdek, pul oqimlarini (kirim va chiqim) diskontlash uslublariga asoslanib xarakterlash orqali amalga oshirish mumkin<sup>[3]</sup>.

Tarmoq korxonalarining iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish yoki uni tiklashga eng katta hissa qo'shuvchi omil, bu – investitsiyalardir<sup>[4]</sup>. Bundan kelib chiyaadiki, investitsiya faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularga baho berish asosida tegishli xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega<sup>[5]</sup>.

Ayniqsa, bugungi noaniqlik sharoitida investitsiyalarni boshqarish va sanoat korxonalarining investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish zarurati oshib bormoqda va bu real investitsiyalarni boshqarish jarayonida investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning uslubiy bazasini takomillashtirish dolzarbligini belgilaydi<sup>[6]</sup>.

Demak, investitsiyalardan samarali foydalanishda unga ta'sir qiluvchi omillarni ajratib olish hamda shu omillar ta'sirini ijobjiy bo'lishi uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi<sup>[7]</sup>. Ta'kidlash joizki, turli iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar samaradorligiga ta'sir etuvchi turli omillar qo'rib chiqiladi<sup>[8]</sup>. Investitsiya samaradorligining oshishini barcha ishlab chiqarish omillaridan ratsional foydalanish, mahsulot tannarxining pasayishi va mehnat unumdarligining oshishi bilan izohlanadi<sup>[9]</sup>. Boshqacha aytganda, tarmoqning investitsiya samaradorligiga uning o'ziga xos xususiyatlari ta'sir qiladi<sup>[10]</sup>.

Ayniqsa, oziq-ovqat sanoatida investitsiyalardan samarali foydalanish juda ko'plab omillarga bog'liq. Birinchi navbatda investitsiyalardan samarali foydalanish tarmoqning iqtisodiy rivojlanish holati va dinamikasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan mazkur tarmoqning ustuvor yo'nalishlariga, xususan, yuqori foya olish yuqori texnologiyali yo'nalishga investitsiya qo'yishga ham bog'liq.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda investitsiyalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni baholash usullari bo'yicha empirik tadqiqotlar hamda nazariy qarashlar o'rganilgan. Tadqiqotda empirik va nazariy jihatdan tahlil va sintez, jadval, grafik usullaridan, shuningdek mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlar ishlaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun 2023-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352,1 trln. so'mni tashkil etib, uning o'sish sur'ati 2022-yilga nisbatan 122,1 foizni tashkil etgan.

Mazkur asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar manbalari tarkibida eng yuqori ulush 24,1 % yoki 84,9 trln. so'm korxonalar mablag'lari hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, jami investitsiyalarning 23,9 % yoki 84,3 trln. so'mi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, 23,4 % yoki 82,4 trln. so'mi kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda 9,5 % yoki 33,3 trln. so'mi aholi mablag'lari hassasiga to'g'ri kelgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ochiqlik va barqaror iqtisodiy islohotlar natijasida mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar yo'naltirishga bo'lgan qiziqish ozib bormoqda.


Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy 2-may kuni Xalqaro kongress markazida uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida "Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o'zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o'tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O'zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo'llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo'lib qolaveradi" – deb, ta'kidladi<sup>[2]</sup>.

Albatta, mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi oshib bormoqda. Xususan, asosiy kapi-



talga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining o'sish sur'ati 2023-yilda (2022-yilga nisbatan) 122,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkich 2019-yilda 195,9 foizni, 2020-yilda 95,6 foizni, 2021-yilda 102,9 foizni, 2022-yilda esa 100,2 foizni tashkil etgan.

2023-yilda respublika bo'yicha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (ulushi) yuqori bo'lgan tarmoq bu ishlab chiqarish sanoati bo'lib, ushbu tarmoqqa 100,6 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 28,6 foizi yo'naltirilgan. Mazkur ko'rsatkich kon sanoatida 36,3 trln. so'm yoki 10,3 foizni, elektr va gaz ta'minoti sohasida 42,0 trln. so'm yoki 11,9 foizni, qishloq xo'jaligida 20,2 trln. so'm yoki 5,7 foizni hamda uy-joy qurilishi sohasida 29,1 trln. so'm yoki 8,3 foizni tashkil etgan (1-rasm).



**1-rasm:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va uning ulushi<sup>1</sup> (2023-yil)

Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil davomida respublika bo'yicha jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352 064,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan jami sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 187 818,7 mlrd. so'mni, jumldan ishlab chiqarish sanoatiga 100 639,8 mlrd. so'm, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari sanoatiga 65 22,9 mlrd. so'm investitsiyalar yo'naltirilgan (1-jadval).

**1-jadval:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi<sup>2</sup>, mlrd. so'm

Yil	Respublika bo'yicha jami	Shundan, jami sanoat bo'yicha	Jumladan, ishlab chiqarish sanoati bo'yicha	Shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari sanoati bo'yicha
2010	16 463,7	4 859,2	2 334,9	225,3
2011	19 500,0	6 214,1	3 016,4	330,9
2012	24 455,3	8 080,8	3 714,7	372,9
2013	30 490,1	10 368,1	4 082,0	469,9
2014	37 646,2	13 874,9	4 780,7	618,3
2015	44 810,4	17 738,4	5 346,2	622,8
2016	51 232,0	19 605,4	8 992,1	651,8
2017	72 155,2	32 877,7	12 238,1	1 181,3
2018	124 231,3	59 821,6	25 741,2	2 685,5
2019	195 927,3	96 065,4	50 990,2	3 729,0
2020	210 195,1	94 178,9	55 943,3	4 472,8
2021	239 552,6	98 516,4	52 427,8	4 932,0
2022	266 240,0	117 317,9	67 818,3	4 202,6
2023	352 064,1	187 818,7	100 639,8	6 522,9

<sup>1</sup> O'zRes. Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023-yil davomida respublika bo'yicha jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (2022-yilga nisbatan) qariyb 1,3 martaga oshgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011 va 2015-yillarda 1,2 martani va 2020-yilda 1,1 martani tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich jami sanoat tarmog'i bo'yicha 2011 va 2015-yillarda 1,3 martani, 2020-yilda 1,0 martani va 2023-yilda 1,6 martani tashkil etgan. Jumldan, ishlab chiqarish sanoati bo'yicha 2011-yilda 1,3 martani, 2015-yilda 1,1 martani, 2020-yilda 1,1 martani va 2023-yilda 1,5 martani tashkil etgan. Shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari sanoati bo'yicha esa 2011-yilda 1,5 martani, 2015 yilda 1,0 martani, 2020-yilda 1,2 martani va 2023-yilda 1,6 martani tashkil etgan.

Tadqiqot davomida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi holatni solishtirganda xorijiy mamlakatlarda, xususan Yevroosyo iqtisodiy ittifoqi (YEOLI) mamlakatlarida o'rtacha hisobda ustuvor yo'nalishlar konchilik va karer qazish (15,7 %, jami investitsiyaga nisbatan), ishlab chiqarish sanoati (13,2 %), transport va saqlash (17,4 %) va ko'chmas mulk operatsiyalari (14,0 %) ekanligini ko'rsatgan bo'lsa, jumladan, Belarusiyada qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (16,2 %), ishlab chiqarish sanoati (18,1 %) va ko'chmas mulk operatsiyalari (19,3 %) ustuvorlik qilgan. Qozog'istonda investitsiyalarni yo'naltirish bo'yicha ustuvorlik konchilik va karer qazish (29,2 %), ko'chmas mulk operatsiyalari (19,3 %), transport va saqlash (11,3 %) hamda ishlab chiqarish sanoati (10,4 %) ga qaratilgan (2-jadval).

**2-jadval: Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlari<sup>3</sup>, % (jamiga nisbatan)**

No	Yo'nalishlar	Yevroosyo iqtisodiy ittifoqi (YEOLI)	Armaniston	Belarusiya	Qozog'iston	Qirg'iziston	Rossiya	O'zbekiston
	<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
1	Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik	4,3	2,9	16,2	5,6	2,2	3,9	2,4
2	Konchilik va karer qazish	15,7	1,5	2,7	29,2	19,1	15,0	0,1
3	Ishlab chiqarish sanoati	13,2	2,8	18,1	10,4	3,5	13,4	31,2
4	Elektr, gaz, bug' va konditsioner	4,9	16,9	9,0	5,4	7,5	4,7	6,9
5	Suv ta'minoti; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va tarqatish ustidan nazorat	1,4	2,3	2,4	3,3	1,7	1,2	2,6
6	Qurilish	4,0	–	1,2	1,5	0,0	4,3	35,7
7	Ulgurji va chakana savdo; avtotsentr va mototsikllarni ta'mirlash	3,6	1,7	3,1	2,3	2,4	3,7	-
8	Transport va saqlash	17,4	17,7	5,9	11,3	11,7	18,1	2,9
9	Turar joy va ovqatlanish xizmatlari	0,6	2,2	0,8	0,9	1,2	0,6	5,7
10	Axborot va aloqa	3,4	2,2	2,7	1,3	3,6	3,6	1,4
11	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2,7	0,5	0,5	0,8	0,1	2,9	4,3
12	Ko'chmas mulk operatsiyalari	14,0	37,1	26,3	19,3	1,3	13,3	-
13	Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	5,6	0,1	1,4	0,4	0,2	6,1	-
14	Ma'muriy faoliyat va ushbu sohadagi qo'shimcha xizmatlar	1,2	0,4	0,9	1,0	0,1	1,2	1,4
15	Davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta'minot	1,9	0,4	1,6	1,1	0,6	2,0	-
16	Ta'lim	2,1	4,4	1,7	2,4	6,3	2,1	0,4
17	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2,3	1,0	3,6	1,7	1,1	2,3	-
18	San'at, dam olish xizmati	1,4	1,4	1,7	1,7	1,1	1,4	-
19	Boshqa xizmatlar ko'rsatish	0,3	4,5	0,2	0,4	36,3	0,2	5,0

Bundan tashqari, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha ustuvorlik Qirg'izistonda boshqa xizmatlar ko'rsatish (36,3 %), konchilik va karer qazish (19,1 %), transport va saqlash (11,7 %), elektr, gaz, bug' va konditsioner (7,5 %) hamda ta'lif (6,3 %) sohalariga berilgan bo'lsa,

<sup>3</sup> [https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep\\_stat/union\\_stat/current\\_stat/investments/series](https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep_stat/union_stat/current_stat/investments/series).  
<https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistikista/investments>




Rossiyada transport va saqlash (18,1 %), konchilik va karer qazish (15,0 %), ishlab chiqarish sanoati (13,4 %), ko'chmas mulk operatsiyalari (13,3 %) hamda kasbiy, ilmiy va texnik faoliyatlar (6,1 %)ga qaratilgan. Shuningdek, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'naliishlari bo'yicha ustuvorlik mamlakatimizda esa qurilish (35,7 %) ishlari, jumladan, turar-joy binolari (8,2 %), noturar-joy binolari (15,8 %) va boshqa inshootlar (11,8 %) qurilishi hamda ishlab chiqarish sanoati (31,2 %)ga qaratilgan.

Bu boradagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy mamlakatlar tajribalari asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'naliishlari bo'yicha ustuvorlik sanoat, transport va ko'chmas mulk kabilarga qaratilgan bo'lsa, bu jarayon mamlakatimizda sanoat va qurilish sohasini qamrab olgan. Fikrimizcha, mamlakatimizda noishlab chiqarish ishlariiga, xususan bino inshootlar qurilishiga ko'p investitsiyalar yo'naltirilmoqda. Undan ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri sanoat mahsulotlari, xususan oziq-ovqat mahsulotlari sanoati ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish va kengaytirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, yuqorida ko'rib chiqilgani kabi xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo'naliishlari bo'yicha ustuvorlikni belgilashda kompleks yondashilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Investitsiyalar bo'yicha tahlillar amalga oshirilganda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibini o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki, iqtisodiy faoliyatga qanchalik ko'p kapitalning yo'naltirilishi uning samarali ishlayotganligini anglatmaydi. Sababi shundaki, agar iqtisodiy faoliyatga biror bir omilning ko'p kiritilishi (boshqa omillar o'zgarmas bo'lgan holda) "omillar unumdorligining kamayish qonuni"ning ro'y berishiga olib keladi.

Tahlillarga ko'ra, respublika bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibini mashina, asbob-uskunalar va inventar sotib olishga 161540,2 mlrd. so'm (jamining 45,9 foizi), qurilish-montaj ishlariiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 160440,2 mlrd. so'm (45,6 %) hamda boshqa xarajatlar uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 30083,7 mlrd. so'm (8,5 %)ni tashkil etgan (2-rasm).



**2-rasm: Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi tendensiysi<sup>4</sup>, %**

E'tiborli jihatni mamlakatimizda so'ngi 5 yillikda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi deyarli, o'zgarmagan. Huddi shu holat iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining ulushida ham kuzatilgan. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bu jarayonlar bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida emas, rejali iqtisodiyot tamoyillari asosida amalga oshirilganga o'xshaydi (bu faraz, albatta).

Bunday holatni dunyoning rivojlangan mamlakatlari AQSH, Kanada va Yevropa mamlakatlaridan farqli o'laroq Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida kuzatish mumkin. Jumladan, Belarus Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi quyidagicha<sup>5</sup>:

- mashina, asbob-uskunalar va inventar sotib olish – 39,5 %;
- qurilish-montaj ishlari – 48,3 %;
- boshqa xarajatlar – 12,2 %.

4 O'zRes. Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5 <http://dataportal.belstat.gov.by/Indicators/Preview?key=156462>



Investitsiya samaradorligini u yoki bu ko'rsatkichlari tizimi va tahlil usullarini qo'llash investitsiya jarayonini amalga oshirishning aniq sharoitlaridan kelib chiqadi, shuningdek bu kutilayotgan mablag'ning miqdoriga bunday tahlilni amalga oshirmoqchi bo'lganlarning iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi, albatta. Ko'pincha investitsiya loyihasini optimal variantini tanlab olish imkoniyati vujudga kelishi uchun bir vaqtning o'zida juda ko'p usullar va ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Odatda mamlakatda investitsiyalar samaradorligini baholashda jahon amaliyotida ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksidan foydalaniladi (ya'ni, yalpi ichki mahsulot o'shining kapital sig'imi) [11].

$$ICOR = \frac{\left( \frac{I}{GDP} \cdot 100\% \right)}{\Delta GDP\%}$$

bu yerda,  $I$  - asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi;  $GDP$  - YAIM hajmi;  $\Delta GDP\%$  - YAIM ning o'sish sur'ati.

Demak, aynan ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksidan foydalanib, mamlakatimiz iqtisodiyotida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligini umumiyl jihatdan va sanoat tarmog'i hamda oziq-ovqat mahsulotlar sanoati bo'yicha baholash, shuningdek natijalarni taqqoslash asosida ilmiy xulosalar olish mumkin.

**3-jadval: Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligini baholash bo'yicha hisoblangan ICOR indeksi**<sup>6</sup>

Yil	Respublika iqtisodiyoti bo'yicha ICOR indeksi	Sanoat tarmogi bo'yicha ICOR indeksi	Ishlab chiqarish sanoati bo'yicha ICOR indeksi	Oziq-ovqat mahsulotlari sanoati bo'yicha ICOR indeksi
2010	0,19	0,12	0,07	0,04
2011	0,18	0,13	0,07	0,04
2012	0,18	0,13	0,08	0,04
2013	0,19	0,14	0,06	0,04
2014	0,19	0,16	0,06	0,04
2015	0,19	0,17	0,06	0,03
2016	0,19	0,17	0,09	0,03
2017	0,22	0,21	0,10	0,06
2018	0,28	0,23	0,13	0,11
2019	0,35	0,28	0,19	0,10
2020	0,34	0,25	0,17	0,10
2021	0,30	0,20	0,13	0,10
2022	0,28	0,20	0,14	0,07
2023	0,31	0,27	0,17	0,09

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligini ICOR indeksi bo'yicha tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 2010–2023-yillar davomida o'rtacha hisobda ICOR indeksi umumiy respublika iqtisodiyotida 0,24 ga, sanoat tarmog'ida 0,19 ga, ishlab chiqarish sanoatida 0,11 ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari sanoatida esa 0,06 ga teng bo'lgan.

Bundan kelib chiqadiki, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligi ICOR indeksi bo'yicha eng yuqori tarmoq bu – oziq-ovqat mahsulotlari sanoati ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, mazkur yuqori samaradorlik bo'yicha 2010–2023-yillar davomida ham oziq-ovqat mahsulotlari sanoati yetakchilik qilgan.

<sup>6</sup> [https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep\\_stat/union\\_stat/current\\_stat/investments/series/](https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep_stat/union_stat/current_stat/investments/series/)  
<https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardan samarali foydalanish asosida oziq-ovqat mahsulotlari sanoati samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagilarni taklif etish mumkin:

- nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari sanoatida, balki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida asosiy kapitalga o'zlashtirilayotgan investitsiyalardan foydalanish jarayonini to'liq isloh qilish, ya'ni, noishlab chiqarish maqsadlariga emas, balki, to'g'ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqarish samaradorligiga olib keluvchi yo'nalishlarga sarflash lozim;
- xorijiy investorlarga yanada qilay shart-sharoitlar yaratish orqali ularning ulushini ko'paytirish hamda ulardan xorij tajribalari va innovatsiyalarini o'zlashtirishda maqsadli foydalanishni kuchaytirish;
- mamlakatda texnologik taraqqiyotni yuklastirish maqsadida yangi texnologiyalarni yaratish va ularning sinov amaliyotlarini amalga oshirishda davlat ko'magini oshirish hamda yetaricha shart-sharoitlar yaratib berish;
- oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimida vujudga keladigan oziq-ovqat chiqindilaridan biogaz olish amaliyotini tashkil etish va bu boradagi dastlabki sinovlarni yetkazish orqali mazkur amaliyotga "start" berish;
- asosiy kapitalga o'zlashtirilayotgan investitsiyalar samaradorligini yanada oshirish maqsadida ushbu jarayonda bevosita foydalanilayotgan boshqa omillar (mehnat resurslari, texnologiyalar, xom ashyo va boshqa)dan samarali foydalanishga e'tibor qaratish lozim;
- investitsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari sanoati korxonalarida, debitor-kreditor qarzlarni kamaytirish choralarini kuchaytirish orqali korxonalarda aylanma mablag'lar sikli tezligini ta'minlash, bu o'z navbatida investitsiyalar qaytimini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sohani yanada rivojlantirish bu bevosita oziq-ovqat xavfsizligining umumiyligi strategiyasida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat sifati, oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish-qayta ishlash-sotish tizimida xarajatlar, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi oziq-ovqat sanoati uchun investitsiyalar hamda boshqa rag'batlantirish chora-tadbirlariga ham bog'liq. Shu boisdan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, avvalo davlat islohotlarining markazida bo'lishi hamda oziq-ovqat tizimi bo'yicha kopmeks yondoshuv asosida rivojlantirish choralarini ko'rish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-may kuni Xalqaro kongress markazida uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/7195>
3. Shodiyev X.A. Moliya statistikasi. Darslik. –T.: 2010. – 173 b.
4. Petrović P., Arsić M., Nojković A. Increasing public investment can be an effective policy in bad times: Evidence from emerging EU economies. Econ Model. 2020.
5. Astanakulov O.T. Investitsiya samaradorligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sirini hisoblash yo'llari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-y.
6. Astanakulov O.T., Asatullayev X.S., Xalikov S.U. Analiz i otsenka effektivnosti investitsionix proyektor // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 3 iyun, 2018-yil.
7. Azamat K. et al. Improving The Investment Environment In The Country: The Role And Analysis Of Banks In The Modernization Of Industry //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 10. – S. 2220-2227.
8. Jigarev S.A. Faktori povisheniya effektivnosti investitsionix protsessov v mashinostroyenii. // TERRA ECONOMICUS (Ekonomicheskiy vestnik Rostovskogo gosudarstvennogo universiteta). 2009 Tom 7 № 2 (chast 3). - 170 s.
9. Biryukov D.V. Effektivnost investitsiy na makroekonomicheskom i regionalnom urovnyax // jurnal Rossiyskoye predprinimatelstvo. №2 (2). 2010. – 2-9 s.
10. Shihong Zeng, Chunxia Jian, Chen Ma, Bin Su. Investment efficiency of the new energy industry in China // Energy Economics. Volume 70, February 2018, Pages 536-544.
11. Pulatova M.B. Sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari. PhD diss. avtoreferati. T.: 2018. –14 b.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.